

O'zbekiston – Eron: adabiy ilmiy aloqalar

Alisher Navoiy jamoat fondi ijrochi direktori Olimjon Davlatov Eronning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Hamid Naerobodyy bilan uchrashdi.





Uchrashuvda Fond ijrochi direktori O'zbekiston va Eron ilmiy aloqalari uzoq yillarga borib taqalishini, Navoiy ijodiga fors shoirlarining ta'siri, shoir g'azalnavislikda Abdurahmon Jomiy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sherozilarni o'ziga ustoz deb bilgani, "Hamsa"ni Nizomiy, Amir Xusrav va Jomiyning forsiy dostonlariga izdoshlik qilib yozganini alohida ta'kidlab o'tdi.

Elchi Hamid Naerobody ham o'z navbatida Eronda bugungi kunda ham Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq me'moriy inshootlar saqlab qolganiga to'xtalib o'tdi.

Uchrashuvda ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, xususan, Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi lirik merosini, g'azallarini fors tiliga tarjima qilish, Erondagi Navoiy hayotligida ko'chirilgan qo'lyozma nusxalarini O'zbekistonga olib kelish masalalari atroficha muhokama qilindi.